

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR BILAN LUG'AT ISHINI OLIB BORISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Xolmirzayeva O'g'iloy Murotali qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

“Maktabgacha ta'lim” kafedrasi stajyor-o'qituvchisi

xolmirzayevaogiloy@gmail.com

Tel: +998919108660

Annotatsiya: bugungi kunda til va kommunikativ qobiliyatlar bolalarning ijtimoiy moslashuvida, intellektual rivojlanishida va ta'lim muvaffaqiyatida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Maktabgacha yosh – bu bolaning nutqiy qobiliyatlarining shakllanishi, so'z boyligining o'sishi va grammatik to'g'ri nutq madaniyatining asoslari qalinadigan eng muhim davr hisoblanadi. Ushbu tadqiqot O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni, 2024 yil 30-sentabrdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-152-son Farmoni “Maktabgacha ta'lim sifati va samaradorligini yanada oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida” va Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2022 yil 20-dekabrda qabul qilingan 802-sonli “Maktabgacha ta'lim davlat standarti” talablariga muvofiq, maktabgacha yoshdagi bolalar bilan lug'at ishlarini olib borishning ilmiy-pedagogik asoslarini o'rganishga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: maktabgacha yosh, lug'at ishlari, nutqiy rivojlanish, so'z boyligi, o'yinli metodlar, milliy madaniy meros, oila hamkorligi, o'yinlar, didaktik materiallar.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ЛЕКЦИОННОЙ РАБОТЫ С ДЕТЬМИ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

Аннотация: сегодня языковые и коммуникативные навыки играют решающую роль в социальной адаптации, интеллектуальном развитии и

учебной успешности детей. Дошкольный возраст – важнейший период, в котором формируются речевые навыки ребенка, растет словарный запас, закладываются основы культуры грамматически правильной речи. Данное исследование посвящено изучению научно-педагогических основ проведения словарной работы с детьми дошкольного возраста в соответствии с требованиями Закона Республики Узбекистан «Об образовании», Указа Президента Республики Узбекистан от 30 сентября 2024 года № ПФ-152 «О дополнительных мерах по дальнейшему повышению качества и эффективности дошкольного образования» и «Государственного стандарта дошкольного образования» № 802, принятого Кабинетом Министров 20 декабря 2022 года.

Ключевые слова: дошкольный возраст, словарная работа, развитие речи, словарный запас, игровые методы, национальное культурное наследие, семейное сотрудничество, игры, дидактические материалы.

PEDAGOGICAL BASIS OF LECTURE WORK WITH PRESCHOOL CHILDREN

Annotation: today, language and communicative skills play a decisive role in the social adaptation, intellectual development and educational success of children. Preschool age is the most important period in which the child's speech skills are formed, vocabulary grows, and the foundations of a culture of grammatically correct speech are laid. This study is devoted to the study of the scientific and pedagogical foundations of conducting vocabulary work with preschool children in accordance with the requirements of the Law of the Republic of Uzbekistan “On Education”, the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated September 30, 2024 No. PF-152 “On additional measures to further improve the quality and effectiveness of preschool education” and the “State Standard of Preschool Education” No. 802 adopted by the Cabinet of Ministers on December 20, 2022.

Keywords: *preschool age, vocabulary work, speech development, vocabulary, game methods, national cultural heritage, family cooperation, games, didactic materials.*

Kirish (Introduction)

Maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqiy rivojlanishi ularning kelajakdagi ta'lim va kommunikativ qobiliyatlarini shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Lug'at ishlari esa bolalarning so'z boyligini oshirish, nutqini aniq va ravonlashtirish, mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Maktabgacha ta'lim tashkilotidagi lug'at ishlarining mohiyati – bu til leksikasi sohasida bolalarning ularga tanish yoki notanish bo'lgan, ammo ular uchun qiyin hisoblangan so'zlarning o'zlashtirishlariga, nutq madaniyatini oshirishga qaratilgan ta'lim-tarbiya ishlarini bir tizimga keltirishdan iboratdir.

“Lug'atni egallash” atamasi – bu nafaqat so'zni o'zlashtirish, uni tushunish, balki uni albatta qo'llash, nutqiy faoliyatda foydalanish demakdir. Insonning yuqori nutq madaniyati, lug'atining boyligi haqida u “eshitilgan”, insonning jonli nutqini bezab turgan taqdirdagina so'z yuritish mumkin. Lug'at ishidagi asosiy jihat – bu faqat bolalarga yangi so'zni tanishtirish emas, balki ularni faol nutqqa kiritishdir. Maktabgacha ta'lim tashkilotidagi lug'at ishi – bu bolalarning faol lug'atini notanish yoki ular uchun qiyin bo'lgan so'zlar bilan reja asosida boyitib borishdan iboratdir.

Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalar bilan lug'at ishlarini olib borishning metodik-pedagogik jihatlari, usullari va samaradorligi tahlil qilinadi. Bolalarning yosh xususiyatlariga mos metodlardan foydalanish, o'yinlar, she'riy matnlar, vizual vositalar va interfaol mashg'ulotlar orqali so'z boyligini oshirishning samarali yo'llari ko'rib chiqiladi.

Tadqiqot davomida ilmiy-pedagogik metodlardan ilmiy tahlil — maktabgacha ta'limga oid dasturlar, qonun hujjatlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va pedagogik adabiyotlar, pedagogik kuzatuv — bolalarning nutqiy faoliyati baholandi, suhbat — tarbiyachilar va ota-onalar bilan nutq rivojlanishi masalalari bo'yicha muloqotlar o'tkazilib, ularning fikr-

mulohazalari tahlil qilindi va eksperiment — yangi metodlarni joriy qilib, ularning samaradorligini oshirishga qaratilgan tajribaviy mashg'ulotlar tashkil etilib o'rganildi.

O'yin – lug'at ishining eng natijali vositasi. Maktabgacha tarbiya pedagogikasida ishlab chiqilgan nazariya asosida bolalar o'yiniga rahbarlik qilish bolalar xulqini tarbiyalashda muhim o'rinni egallaydi. Ana shu o'yinlarning ko'pchiligidan bolalar nutqini rivojlantirishda ham foydalanish mumkin: jumladan, o'zaro kelishib olish; rol va majburiyatlarini taqsimlash; o'zi nimani bilsa, o'rtog'ini ham shunga o'rgatish va hokazo. Tarbiyachi bolalar o'yiniga rahbarlik qilar ekan, ularning bir-birlari bilan samimiy ohangda, muloyim so'zlashishga o'rgatadi. Shuning uchun ham tarbiyachi bolalar lug'atini va bilimini o'yin jarayonida kengaytirish yo'llarini oldindan puxta o'ylab qo'yishi kerak: o'yinni buyumlar bilan, milliy kiyimlardagi bolalarni tasvirlovchi qo'g'irchoqlar bilan tashkil etish, o'yinga va bolalar nutqiga rahbarlik qilish (tarbiyachining bolalarga o'qib yoki hikoya qilib berishi, o'yin to'g'risida savollar va jamoa bo'lib gapirib berish va hokazo).

Ta'limiy o'yinlar bolalar lug'atini faollashtirishning asosiy uslubiyotlaridan (metodlaridan) biridir. Ta'limiy o'yin bolalarning amaliy faoliyati hisoblanadi, chunki unda bolalar mashg'ulotlarda olgan bilimlaridan foydalanadilar. Bolalarning aqliy faoliyatlarini kuchaytiradi, olgan bilimlaridan har xil usulda foydalanishlari uchun imkoniyatlar yaratib beradi. Ta'limiy o'yin bolalarning tevarak-atrof, ijtimoiy hayot to'g'risidagi bilimlarini mustahkamlashga yordam beradi, o'z shaxsiy tajribalari va mashg'ulotlarda olgan bilimlarini amalda qo'llay bilishga o'rgatadi, fikrlash qobiliyatlarini, ijodiy kuchlarini, sensor jarayonini rivojlantiradi, olgan bilimlarini tartibga soladi. Har bir ta'limiy o'yin o'zining dastur mazmuniga ega. Bu "Maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'lim-tarbiya dasturi" da o'z aksini topgan. Masalan:

- 1) buyumlar, ularning nomi, rangi, shakli, hajmi, sifati to'g'risida bilimlar berish;
- 2) mehnatning har xil turlari va uning kishilar hayotidagi roli

to'g'risidagi bilimlar;

3) tabiat voqealari, narsalar, buyumlar, yil fasllari

to'g'risidagi bilimlar;

4) dastlabki matematik tushunchalar: son, sanoq, kattalik, shakl, vaqt va fazoviy tushunchalar berish

Bolalarni talaffuzga o'rgatish

Maktabgacha yoshdagi bolalarni o'zbekcha nutqqa o'rgatishda o'zbekcha tovush va tovush birikmalarini to'g'ri eshitish orqali ajrata bilish va talaffuz qilishga o'rgatish asosiy maqsadlardan biridir. Bu ish maxsus o'yinlar orqali turli hayvon va parrandalarning ovozlari, qo'ng'iroq, transport vositalarining, tabiat hodisalarining tovushlariga taqlid qilish yo'li bilan amalga oshiriladi. O'yinlar jarayonida bolalar e'tiborini har bir tovushni talaffuz qilishda lab, til, og'iz harakatiga tortish lozim. Kichkintoylar so'z va gapning ma'nosiga urg'u va ohangning ta'sirini ham tushunib borishlari kerak. O'zbekcha tovushlar talaffuzi ustida ishlashda q, o, g', h, j tovushlari mashqiga alohida e'tibor berish zarur. Masalan, q tovushining to'g'ri talaffuzi ustida ishlash mashg'ulotini quyidagicha tashkil etish mumkin:

1. Q tovushi ishtirok etgan so'zlar bilan tanishtirish.
2. Tanlangan so'zlarning talaffuzini mashq qilish.
3. Q va k tovushlarining bir-biridan farqini aniqlash.
4. Q va k tovushlari ishtirok etgan so'zlarni talaffuz qilish.

Har bir tovush yoki tovushlar birikmasi talaffuzi bo'yicha ishlar muntazam olib boriladi. Bunda ushbu tovush yangi o'rganilayotgan so'z tarkibiga kiritiladi. Shunday qilib, tovush va tovushlar birikmasini to'g'ri talaffuz qilishga o'rgatish bilan birga so'z boyligini oshirish ishi ham olib boriladi.

Mashg'ulotlar jarayonida hamda mashg'ulotlardan tashqari vaqtlarda bolalarda o'zbek tiliga xos tovushlarni ham alohida, ham so'z tarkibida bilish, ularni rus tilidagi shunga o'xshash tovushlardan farqlay olishi, o'zbekcha talaffuz qilish ko'nikmalarini shakllantirish katta ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentabrdagi PF-152-sonli Farmoni "Maktabgacha ta'lim sifati va samaradorligini yanada oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida".
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 20-dekabrdagi 802-sonli Qarori "Maktabgacha ta'lim davlat standarti" to'g'risida.
4. "Ilk qadam" Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining Davlat o'quv dasturi. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, 2022.
5. Axmedova, H., Sodiqova, Sh. Maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqini rivojlantirish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2018.
6. Venger L.A., Pilyugina E.G. Bolalarning aqliy rivojlanishi va tarbiyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1991.
7. G'ofurov, A., Qodirova, M. Maktabgacha pedagogika. – Toshkent: O'zbekiston, 2019.
8. Usmonova, Sh., Ismollova, M. Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish. – Toshkent: Ilm Ziya, 2020.
9. Yormatova, A. Bolalar nutqini rivojlantirishda o'yin faoliyatining ahamiyati // Maktabgacha ta'lim. – 2021. – № 3. – B. 45-48.
10. F.T.Raxmatullayeva. Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash. T., "Fan va texnologiya", 2013.
11. Alixonova, S. Lug'at ishlarida interfaol metodlardan foydalanish. – Toshkent: Navro'z, 2022.
12. Bogush, A.M. Bolalarning ona tiliga o'rgatishda etnopedagogik yondashuv. – Toshkent: Ma'naviyat, 2017.
13. Jo'rayeva, D. Kichik maktabgacha yoshdagi bolalarning so'z boyligini oshirish yo'llari // Ta'lim va innovatsiyalar. – 2023. – № 1. – B. 112-115.